



## TRANSPATALOGIYA

### Xusanova Oysuluv Mamadali qizi

Olmalıq Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi. Kattalarda va bolalarda hamshiralik ishi kafedrasining mutahasis fan o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada transplantologiya va uning turlari, transplantatsiyaning rivojlanish tarixi, transplantologiyada yuzaga keladigan muammar, donorlar kabi masalalar yoritib berildi.

**Kalit so'zlar:** transplantatsiya, donor, nobel mukofoti, yurak, jigar, immunosuppressant

Transplantologiya - bu organlarni [transplantatsiya](#) qilish muammolarini (xususan, buyraklar, [jigar](#), [yurak](#), [o'pka](#) va hakazo), shuningdek, sun'iy organlar yaratish istiqbollarini va muammolarini o'rganadigan [tibbiyot](#) sohasi. Transplantologiyaning bir necha turlari mavjud:

1. ksenotransplantatsiya - boshqa [biologik turdan](#) organlar va / yoki to'qimalarni [transplantatsiya](#) qilish;
2. allotransplantatsiya - transplantatsiya, bunda transplantatsiya [donori](#) genetik va immunologik jihatdan farqlanuvchi inson tanasi; sun'iy organlar;
3. ildiz hujayralari yoki o'zak a'zoldan o'sayotgan organlar ;
4. avtotranspatalogiya- transplantatni qabul qiluvchi transplantat organ uchun o'ziga o'zi donorlik qiladi.

Transpatalogiyaning tibbiyotga kirib kelish tarixiga yuzlanadigan bo'lsak. Hayotiy organlarning, aynan, yurakning eksperimental transplantatsiyasi asoschisi [Aleksis Karreldir](#) 1912-yilda [Nobel mukofotiga](#) sazovor bo'lgan. U eksperimentda organlarni transplantatsiya qilish, ularni saqlash va tomirlar anastomozlarini qo'llash texnikasi bo'yicha amaliy tadqiqotlar olib bordi. U donor organlarni saqlash va perfuziya jarayonlarining asosiy tamoyillarini ishlab chiqdi. Odamdan odamga organ ko'chirishga birinchi urinish [1933-yilda Xersonda Y.Y.Voronoy](#) tomonidan amalda o'tkazilgan. Dunyo transplantologiyasining asoschilaridan biri rus olimi V.P. Demixov bo'lib, u [1951-yilda](#) itga donor yurak transplantatsiyasini o'liq ishlab chiqdi. [1967-yil 3 -dekabrda Janubiy Afrikalik](#) jarroh [Kristian Barnard](#) avval Demixov bilan, shuningdek, bir qator dunyo jarrohlik klinikalarida amaliyot o'tagan, dunyoda birinchi marta yurak ko'chirib o'tkazishni muvaffaqiyatli amalga oshirdi. Keyptaun. Barnard Demixovni o'zining ustozlari deb hisobladi va uning laboratoriyasiga ikki marta tashrif buyurdi. Biroq, dunyo miqyosida shuhrat qozongan Bernarddan farqli o'laroq, Vladimir Petrovich qashshoqlikda, kommunal kvartirada vafot etdi. O'shandan beri 40 mingdan ortiq bunday operatsiyalar allaqachon amalga oshirilgan. SSSRda birinchi yurak transplantatsiyasi 1968-yil 4-noyabrda Sovet Armiyasi bosh jarrohi Aleksandr Aleksandrovich Vishnevskiy tomonidan amalga oshirildi va birinchi muvaffaqiyatli transplantatsiya taniqli jarroh, Rossiya Fanlar Akademiyasi akademigi Valeriy Ivanovich Shumakov tomonidan amalga oshirildi. [1987-yil 12-mart](#). Hozirgi vaqtda Moskvadagi Transplantologiya va sun'iy organlar instituti Rossiya Federatsiyasining klinik va eksperimental transplantatsiya sohasidagi etakchi muassasasi hisoblanadi. Birinchi omadli buyrak ko'chirib o'tkazish [1954-yil](#) dekabr oyida ikki bir xil [egizak aka](#) -uka o'rtasida Jozef Murreyboshchiligidagi jarrohlarning jamoasi tomonidan amalga oshirildi. Jozef Murrey



tadqiqotlarini davom ettirib, o'zaro qarindosh bo'lmagan donordan buyrak ko'chirib o'tkazish imkoniyatiga erishdi, shu bilan birgalikda [immunosuppressantlarning](#) xususiyatlari va begona organi rad etish mexanizmi o'rganildi. Birinchi jigar transplantatsiyasi [1956-yilda](#) Tomas Starzl tomonidan amalga oshirilgan. O'pka transplantatsiyasi birinchi marta [1963-yilda](#) Missisipi universiteti kasalxonasida doktor Jeyms Xardi tomonidan amalga oshirilgan, biroq bemor operatsiyadan bir necha kun o'tib vafot etgan. Joel Kuper [1983-yilda](#) bir o'pkani muvaffaqiyatli transplantatsiya qildi, [1986-yilda](#) u ikkita o'pkani muvaffaqiyatli transplantatsiya qilgan.

Yurtimizda transplantologiyani barcha sohasini qonuniy jihatdan tartibga solish maqsadida bir qancha normativ hujjatlar qabul qilingan. Jumladan jinoyat kodeksining 135-moddasi «Odam savdosi», 137-moddasi «Odam o'g'irlash» va 133-moddasi «Odam tana a'zolari va (yoki) to'qimalarini olib qo'yish va transplantatsiya qilish shartlari va (yoki) tartibini buzish» to'g'risida bo'lib, shu sohaga bag'ishlanadi. O'zbekiston respublikasi Vazirlar mahkamasining “Qarindoshlar o'rtasida buyrak va jigar bo'lagini transplantatsiya qilish tartibi to'g'risida”gi vaqtinchalik nizomi ham transplantologiyani muammolarini hal qilish va tartibga solishga asoslangan. Transplantatsiyada tirik odamlardan va murdalardan donor sifatida foydalanishda quyidagi tibbiy-huquqiy muammolarga duch kelish mumkin: *1. Tirik organizmda*

- a) donor roziligi;
- b) organizmga ziyon yetkazmaslik; (Gippokrat modelining “Ziyon yetkazma” tamoyili asosida)
- c) a'zo va to'qimalarga donorlik qilgani uchun haq to'lash;

## 2. Murdalarda

- a) biologik moslik;
- b) murdaning hayotlik davridagi roziligi;
- c) a'zo va to'qimalarning olingan vaqti;
- d) a'zo va to'qimalarning qay sharoitda va qay tarzda olinganligi;
- e) transplantatsiya jarayonining olib borish sharoiti;
- f) ijobiy natija berishiga kafolat;

G'arb mamlakatlarida asosan materialistik dunyoviy qarashlarning ustunligi tufayli transplantologiyani ko'pgina sohalarda deyarli to'sqinlikka yo'l qo'yilmaydi. Yani diniy aqidalarga mos kelishi yoki mos kelmasligi deyarli hisobga olinmaydi (Misol: Jinsni almashtirish transplantatsiyasi). Yana shuni aytib o'tish kerakki, tibbiyot sohasining nafaqat transplantologiya sohasi balki ko'pgina sohalari juda yaxshi rivojlangan. Tarixan ma'lumki, g'arbda tibbiyot 2-jahon urushi yillarida va undan keying yillarda avj olib rivojlana boshladi. Bunga asirga olingan harbiylar va turmalardagi mahbuzlardan tajriba sifatida foydalanilganligi sabab bo'lgan. Bu voqealarni etik-huquqiy nuqtai nazaridan tartibga solish maqsadida 1947 yilda “Insonning ixtiyoriy rozilgisiz unda tajriba o'tkazish taqiqlanishini” muhim qoida sifatida belgilab qo'ygan Nyurnberg kodeksi qabul qilinadi. Sharq mamlakatlari, ayniqsa, oldingi Movarounnahr hududida aholining aksariyat qismi Islom diniga e'tiqod qilganligi sababli transplantologiyani har qanday sohasiga ham ruxsat berilmaydi. Islom dini ulamolari va shifokorlar o'rtasida organizmda miyaning o'limi va a'zolar transplantatsiyasi bo'yicha muzokaralar bundan ancha ilgari vujudga kela boshlagan. Lekin bu masala haligacha islom mamlakatlarida murakkab masala va muammoligicha qolmoqda. Shuningdek bu masala bioetika muammolarining reytingida 6-o'rinni egallaydi. Islom dinining muqaddas kitobi Qur'oni Karimda va



islomiy an’analarda yuqorida aytib o’tilgan mavzuga doir aniq bir ko’rsatma yo’q. Shuning uchun ham din ulamolari bu masalaga yechim topishga uringanlar, ya’ni bu ijtimoiy masalasi bo’lgani uchun turli xil qarashlar va qarama-qarshi fikrlar vujudga kelgan. Ammo, dinda inson hayotini saqlab qolish muhim ekanligiga asoslagan holda ba’zi islomiy davlatlarda miya o’lgach, murdaning a’zolarini tirik organizmga transplantatsiya qilishga imkon beruvchi qonun qoidalar mavjud. Bugungi kunda transplantologiya sohasi g’arbning AQSh, Germaniya, Turkiya, Rossiya Federatsiyasi kabi mamlakatlarda, sharqda esa Hindiston, Isroil, Janubiy Korea kabi davlatlarda yaxshi rivojlanganligini aytishimiz mumkin. Masalan Hindiston dunyo bo’yicha tibbiyot sohasi rivojlangan davlatlar qatorida yetakchi o’rinda turadi. Hozirda ko’pgina transplantatsiyalar Isroilda amalga oshirilmoqda va yaxshi natijalarga erishilmoqda. Janubiy Korea esa plastik transplantatsiya (avtotransplantatsiya) sohasida dunyo bo’yicha 1-o’rinda turadi. Xulosa o’rnida aytish mumkinki, so’nggi davrda tibbiy faoliyat bilan bog’liq jarayonlarning, xususan, transplantologiyaning xususiyatlari sezilarli darajada rivojlanib bormoqda.

Binobarin, ilgari ushbu faoliyatni muvaffaqiyatli olib borish uchun tibbiyotga oid tegishli bilim, ko’nikmalarga ega bo’lish yetarli deb qaralgan bo’lsa, hozirgi kunda bu faoliyat bilan bog’liq bo’lgan etik qoidalar va huquqiy me’yorlarga rioya qilish, bilish va ularga izchil amal qilish ham zarurdir.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak transpatalogiya bugunning muhim jarrohlik bilan bog’liq bo’lgan tibbiyotning bir bo’limidir. Transpatalogiya yordamida oreganlarni transplatatsiya qilish ko’plab bemorlarining bevaqt olamdan ko’z yumushini oldini oladi. Bu nafaqat kattalarda balki yurak nuqsoni bilan tug’ilgan chaqaloqlarda ham yashashga yana bir imkon beradi. Sohaning barcha yo’nalishlarda rivojlanayotgani bugungi kunda nafaqat yurak balki istalgan organlare transplatatsiyasini o’tkazish imkonini beremoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Махмудова А. Н. Шахс ҳуқуқий ижтимоийлашувида ижтимоий назорат тушунчаси ва тизими //международный журнал Консенсус. – 2020. – Т. 1. – №.
2. Nugmanovna M. A. et al. EDUCATION OF TOLERANCE IN YOUNGER GENERATION //Conferencea. – 2022. – С. 52-55.
3. Nugmanovna M. A., Kamariddinova K. A. Modern biotechnical problems of medicine and their solutions //Archive of Conferences. – 2021. – Т. 13. – №. 1. – С. 169-173.
4. Nugmanovna M. A. et al. EDUCATION OF TOLERANCE IN YOUNGER GENERATION //Conferencea. – 2022. – С. 52-55.
5. Rakhmatullaevna U. L. THE MANIFESTATION OF THE EASTERN ROMANTIC SPIRIT IN MINIATURE ART //European science review. – 2021. – №. 5-6. – С. 65-68.
6. Rakhmatullayevna U. L. THE ROLE OF AESTHETIC EDUCATION IN THE MODERN WORLD //Confrencea. – 2022. – Т. 1. – №. 1.



7. Махмудов С. Х. ТУРИСТИК ОБЪЕКТЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА ДАВЛАТ ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИК ШЕРИКЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ //Интернаука. – 2020. – №. 42-2. – С. 68-69.
8. Махмудов С. Х. и др. ТАРИХИЙ-МАДАНИЙ ТУРИСТИК САЛОҲИЯТИДАН ФОЙДАЛАНИШ САМАРАДОРЛИГИНИ БАҲОЛАШ УСУЛЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ //Интернаука. – 2020. – №. 25-2. – С. 31-32.
9. Bahromovna S. K., Kamariddinova K. A. Theoretical bases of tourism activity and socioeconomic factors of the concept of its priority development //ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL
10. MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL. – 2021. – Т. 11. – №. 1. – С. 769-773.
11. <https://cyberleninka.ru/article/n/transplantologiya-rivojlanishining-etik-huquqiy-jihatlar>  
<https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Transplantologiya>